

кучайтирилишини истамайдиганлар бюджет маблағларининг молиявий хатоликларсиз қонуний, мақсадли, оқилона ва самарали сарфланишига эришишлари керак. Ўшанда назоратнинг кучайтирилишига ҳожат қолмайди.

DAVLATLARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIK DARAJASI: TADQIQOTLAR VA MUAMMOLAR

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ITM katta ilmiy xodimi

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma'lumotlariga ko'ra²⁰⁷, moliyaviy savodxonlik bu tegishli moliyaviy qarorlar qabul qilish va shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun zarur bo'lgan xabardorlik, bilim, malaka, munosabat va xulq-atvor majmuidir. Demak, moliyaviy savodxonlik muhim moliyaviy qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni anglatadi. Har kuni minglab odamlar qayerda bank hisobini ochish, qaysi ipotekani tanlash, pullarini qayerga investitsiya qilish va oylik daromadini to'g'ri taqsimlash, nima eng muhimi va kerakligi haqida qaror qabul qiladi. Aynan shunday vaziyatlarda moliyaviy savodxonlik shaxslarning qaror qabul qilish jarayonlarida asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun ham moliyaviy savodxonlikni asosi pul hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini strategik rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri uning o'zgarishi ko'rsatkichlari va indekslarini oshirish, raqobatbardoshlikni oshirish, barqaror ishbilarmonlik va investitsiya muhitini shakllantirish uchun asos bo'ladigan iqtisodiy o'sishni mustahkamlash, munosib turmush darajasini saqlashdan iborat. Bu maqsadlarni amalga oshirish aholidan munosib moliyaviy savodxonlikni talab qiladi.

Moliyaviy savodxonlik g'oyasi 1900-yillarning boshlarida Amerika Qo'shma Shtatlarida boshlangan bo'lsa²⁰⁸, taxminan 2000-yildan beri moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar butun jamiyatda tobora keng tarqalmoqda. Iqtisodiyotni raqamlashtirish, ilmiy-texnikaning va moliyaviy munosabatlarning rivojlanishi moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish kerakligini talab qilmoqda.

XXI asrgacha insonlar tovarlarni asosan naqd pulga sotib olgan bo'lsalar, bugungi kunda kredit va debet kartalari va elektron pul o'tkazmalari kabi turli kredit mahsulotlaridan foydalanilmoqda. AQSH da San-Fransisko Federal zaxira banki tomonidan 2021-yilda o'tkazilgan so'rov tadqiqot natijalariga ko'ra, barcha to'lovlarning 28 foizi kredit karta orqali, 20 foizi naqd pulda amalga oshirilgan²⁰⁹.

²⁰⁷<https://www.sciencedirect.com/topics/social-sciences/organisation-for-economic-co-operation-and-development>


²⁰⁸ Jelley, H.M. A Measurement and Interpretation of Money MANAGEMENT understandings of Twelfth-Grade Students; University of Cincinnati: Cincinnati, OH, USA, 1958.

²⁰⁹ Federal Reserve Bank of San Francisco. "2022 Findings from the Diary of Consumer Payment Choice.", <https://www.proquest.com/openview/4bcb2d43402027e4f94a862b4e642dd1/1?pq-origsite=scholar&cbl=75965>. Page 6

Zamonaviy jamiyatda moliyaning ahamiyatini hisobga olsak, moliyaviy savodxonlikning etishmasligi insonning uzoq muddatli moliyaviy muvaffaqiyatiga zarar etkazishi mumkin.

Stenford Biznes maktabi tadqiqoti natijalariga ko'ra 2020-yilda evropalik iste'molchilar (kattalar)ning 13 foizi onlayn firibgarlik yoki firibgarlik tufayli moliyaviy yo'qotishlarni boshdan kechirgan²¹⁰. Demak, ular aynan moliyaviy savodxonlik yetishmasligi tufayli firibgarlarning tuzog'iga tushishgan. Ayni vaqtda bizning mamlakatimizda ham shunday firibgarlik holatlari kuzatilmoqda. Aholini o'rtasida doimiy ravishda ogohlantirishlar olib borilayotganligiga qaramasdan moliyaviy firibgarlik qurbonlari tez-tez uchrab turmoqda.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy savodxonlik darajasi odatda past. Milliy Moliyaviy Ta'lim Kengashi (NFEC) ning 2019-yilgi hisobotida AQShda "moliyaviy savodsizlik epidemiyasi" borligini ta'kidlaydi²¹¹. Mamlakatlararo taqqoslashlar moliyaviy savodsizlik global hodisa bo'lishini ko'rsatmoqda. Shuning uchun o'z tadqiqotlarida Lusardi "moliyaviy savodxonlik butun dunyo bo'ylab past va yuqori milliy daromad darajasi moliyaviy savodxonroq aholiga to'g'ri kelmasligini" ta'kidlaydi²¹².



2-rasm. Mamlakatlarda moliyaviy savodxonlik darajasi²¹³

Dunyo bo'ylab savodxonlik darajasi²¹⁴ bo'yicha hisobotda eng ko'p moliyaviy savodxonlik darajasiga ega 10 mamlakat qatoriga 71% bilan Daniya, Norvegiya va Shvetsiya, 68% bilan Kanada va Isroil, 67% bilan Buyuk Britaniya, 66% bilan Germaniya va Gollandiya, Avstraliya 64% va Finlyandiya 63% ekanligi keltirilgan. Afrika barcha qit'alar ichida eng yomon ballga ega ekanligi ko'rsatilgan. Osiyo va Yaqin Sharqdagi vaziyatni Afrika bilan solishtirish mumkin. Yaman (13 foiz) va Afg'oniston (14 foiz) jahon reytingida eng quyi pog'onadan joy olgan, Qirg'iziston (19 foiz), Nepal (18 foiz), Bangladesh (19 foiz) va Kambodja (18 foiz). Xitoy 28% ball ekanligi ko'rsatilgan.

²¹⁰ https://commission.europa.eu/system/files/2020-01/factsheet_fraud_survey.final_.pdf

²¹¹ National Council of Financial Educators. (2019) National financial literacy test results. Available at: <https://www.financialeducatorsCouncil.org/national-financial-literacy-test/#details> [Accessed 23rd April 2019].

²¹² Lusardi, A.M. (2019) Financial literacy and the need for financial education: evidence and implications. Swiss Journal of Economics and Statistics, 155(1), 1–8.

²¹³ <https://cepr.org/voxeu/columns/financial-literacy-importance-new-field>

²¹⁴ <https://gflec.org/initiatives/sp-global-finlit-survey/>

Мотивавий билимлар ва ҳақиқий мотивавий натижалар о'ртасидаги chambarchas bog'liqlikni hisobga olsak, keng tarqalgan мотивавий savodsizlik muammosi tashvishlidir. Davlatlarning мотивавий savodxonlikni oshirish borasidagi sa'y-harakatlari aholining мотивавий imkoniyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim dasturlari, resurslar, qoidalar va jamoatchilikni xabardor qilish orqali davlatlar o'z fuqarolarini ongli мотивавий qarorlar qabul qilish va shaxsiy motivasiyning murakkabliklarida harakat qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan jihozlashlari mumkin. Мотивавий ta'lim мотивавий savodxonlikni oshiradi.

Foydalanilgan manbalar:

1. <https://www.sciencedirect.com/topics/social-sciences/organisation-for-economic-co-operation-and-development>
2. Jelley, H.M. A Measurement and Interpretation of Money MANAGEMENT understandings of Twelfth-Grade Students; University of Cincinnati: Cincinnati, OH, USA, 1958.
3. Federal Reserve Bank of San Francisco. "2022 Findings from the Diary of Consumer Payment Choice.", <https://www.proquest.com/openview/4bcb2d43402027e4f94a862b4e642dd1/1?pq-origsite=gscholar&cbl=75965>. Page 6.
4. https://commission.europa.eu/system/files/2020-01/factsheet_fraud_survey.final_.pdf
5. National Financial Educators Council. (2019) National financial literacy test results. Available at: <https://www.financialeducatorsCouncil.org/national-financial-literacy-test/#details> [Accessed 23rd April 2019].
6. Lusardi, A.M. (2019) Financial literacy and the need for financial education: evidence and implications. Swiss Journal of Economics and Statistics, 155(1), 1–8.
7. <https://cepr.org/voxeu/columns/financial-literacy-importance-new-field>
8. <https://gflec.org/initiatives/sp-global-finlit-survey/>

ПРИОРИТЕТНЫЕ ЗАДАЧИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ БЮДЖЕТНО-ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМОЙ

Ёдгорова Мухайё Шухратовна

студентка 2 курса

Ташкентского университета информационных технологий имени Аль-Хорезми

Шарифходжаева Наргиза Абдуманноновна

Научный консультант: старший преподаватель кафедры Гуманитарных наук

Аннотация. На сегодняшний день часто затрагиваемой темой становится финансовая грамотность, а именно как управлять, распределять и инвестировать. Ведь грамотное распределение капитала –